



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Кнарлик Карапетовна Арабян, Дилбар Хасановна Асланова, Мария Валерьевна Рубель Развитие предпринимательского мышления: опыт платформы системного развития «Бизнес созидание»	5
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Креатив иқтисодиёт индустриясининг мазмуни ва унинг назарий масалалари	10
Дилдора Собиржонова Джураева Пути повышения уровня жизни населения в Республике Узбекистан: теоретико-методологический анализ и практические рекомендации	19
G'olib Sultonmurodovich Mustafoyev, Sabina Baxtiyor qizi Xudoyberdiyeva Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillar	24
Аскар Хайдарович Джумаев Хулқ-атвор иқтисодиётининг қисқача мазмун-моҳияти, аҳамияти ва истиқболлари	28
Анвар Нематович Холиқулов Сервис фаолияти маданияти тушунчасининг назарий талқини	31
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Комил Бахрамович Уразов, Мадина Шайманкуловна Хушмуродова Тенденции развития электронной торговли в Узбекистане	35
Dilafroz Marufovna Vofaxojayeva Tibbiyot turizmini rivojlantirishda raqamlashtirishning o'rnini	39
Наргиза Музафаровна Бабаева Инновацияларнинг Ўзбекистон иқтисодий ривожланишидаги роли	45
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov Agroklasterni tashkiliy jihatdan optimallashtirish negizidagi kooperatsion aloqa usullari, yo'nalish va mexanizmlari	50
Umar Xudayberdiyev, Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva O'zbekistonda go'sht yetishtirishdagi muammolar va ularning yechimi	53
Boburmirzo Botirovich Abduvaxobov Sutni qayta ishlash korxonalarida ta'minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	56
G'ayrat Ablakulovich Ibragimov, Diyora O'tkir qizi Toshqulova, Shaxnoza G'ayrat qizi Ablakulova Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda suv resurslaridan foydalanishning o'rnini	60
Akhror Abdihakimovich Shermatov The importance of intellectual capital in manufacturing enterprises in the economy	64
Barno Asatullojevna Mardanova Sut mahsulotlari ta'minot zanjiri: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar	69
Eldor Toshtemirovich Xamdamov, Shuhrat Saidahmadovich Sharifov O'zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish	74
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Munavvar Farxod qizi Axrorova Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida takomillashtirishning istiqbollari	77
Sanjar Nasriddinovich Nazarov Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axbarotlashtirish xizmatlarini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	82

<p style="text-align: right;">D.Jurayeva</p> <p>O‘zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasini oshirish yo‘llari: nazariy-uslubiy tahlil va amaliy tavsiyalar</p> <p>Annotatsiya. Maqolada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy elementi sifatida aholi turmush darajasini oshirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. 2019–2023 yillarga mo‘ljallangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili asosida daromad, bandlik va kichik biznesni rivojlantirish sohalarida ijobiy tendensiyalari aniqlangan. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi va infratuzilmani isloh qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: turmush darajasi, qashshoqlik, ijtimoiy himoya, barqaror rivojlanish, aholi daromadlari, bandlik, davlat siyosati, inson kapitali, ijtimoiy infratuzilma.</p>	<p style="text-align: right;">D.Dzhuraeva</p> <p>Ways to improve the standard of living of the population in the Republic of Uzbekistan: theoretical and methodological analysis and practical recommendations</p> <p>Abstract. The article examines the theoretical foundations and practical aspects of improving the standard of living of the population as a key element of sustainable socio-economic development. Based on the analysis of macroeconomic indicators for 2019–2023, positive trends in income, employment and small business development were identified. Particular attention is paid to state support for vulnerable groups of the population, the role of social protection, as well as reforms in the agricultural and infrastructure sectors.</p> <p>Keywords: standard of living, poverty, social protection, sustainable development, population income, employment, state policy, human capital, social infrastructure.</p>
---	---

G‘olib Sultonmurodovich Mustafoyev – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD

Sabina Baxtiyor qizi Xudoyberdiyeva – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

ZAMONAVIY XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY OMILLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Xususan, ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, xalqaro tashkilotlarning roli, investitsiya oqimlari, mehnat migratsiyasi, global ixtisoslashuv va ekologik barqarorlik kabi omillar xalqaro iqtisodiy aloqalarga ta’siri nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan. Tahlillar asosida ushbu omillar xalqaro hamkorlik shakllarining o‘zgarishiga, yangi iqtisodiy model va siyosatlarining yuzaga kelishiga olib kelayotganligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, globalizatsiya, raqamli iqtisodiyot, investitsiya oqimlari, xalqaro tashkilotlar, ilmiy-texnik taraqqiyot, iqtisodiy integratsiya.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlari tobora jadallashib, davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar yanada murakkablashib bormoqda. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlar nafaqat savdo va investitsiya oqimlari orqali, balki ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalar, ekologik xavfsizlik, migratsiya va institutsional islohotlar orqali ham shakllanmoqda. Jahon iqtisodiy tizimidagi o‘zgarishlar milliy iqtisodiyotlarning tashqi siyosatiga, ishlab chiqarish va resurslardan foydalanish strategiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, pandemiya davridagi tajribalar, geosiyosiy tangliklar va ekologik muammolar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakl va yo‘nalishlarda rivojlanayotganini ko‘rsatdi. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiy aloqalarni chuqur tahlil qilish, ularni shakllantirayotgan omillarni aniqlash va baholash bugungi ilmiy-amaliy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Mazkur ishda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni yoritib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — bu turli mamlakatlar va ularning xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy aloqalar majmuidir. Ular tovarlar va xizmatlar savdosi, kapital harakati, mehnat resurslari

migratsiyasi, texnologiyalar transferi, iqtisodiy yordam, moliyaviy oqimlar va boshqa shakllarda namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy dunyoda xalqaro iqtisodiy munosabatlar juda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pgina mamlakatlarning ixtisoslashuv darajasi shunchalik yuqoriki, ular o‘z daromadlarining asosiy qismini tovar va xizmatlar eksporti orqali hosil qiladi [1].

MDH mamlakatlari olimlaridan Ж.А.Мингалева va Н.А.Груздевалар ham o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlariga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida fikrlarni yoritib, har qanday mamlakat ichidagi iqtisodiy faoliyatning o‘ziga xosligi ko‘plab omillar bilan belgilanadi: tabiiy resurslarning mavjudligi va ma’lum iqlim sharoitlari; milliy boylik hajmi va jamiyatning demografik tuzilishi; milliy mentalitet xususiyatlari; siyosiy, davlat va ijtimoiy tuzilish xususiyatlarini ochib beradilar [2].

Muayyan davlatning rivojlanish darajasi xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi mavqeiga bog‘liq bo‘lib, ular ishlab chiqarish hajmiga va milliy daromadga qarab o‘zgaradi, bu xalqlarning tovar va xizmatlar sohasidagi talab va taklifini belgilaydi. Ushbu pozitsiyalarga ma’lum bir mamlakatning milliy boyligi ham ta’sir qilishlari haqida ma’lumotlarni berib o‘tadilar.

Yana bir MDH olimasi Дана Аслановна Хажкасимова ham zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlari, Brexit misolida mustaqillik harakat vektorining paradoksi holatlarini o‘rganib, zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillarni o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratganlar. Olimaning aytishicha mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlari qanday shakllanganligini qayta ko‘rib chiqish zarurati va buning uchun zarur shart-sharoit dastlab yetarlicha yaxshi tashkil etilgan millatlararo assosiatsiyalar tizimi tufayli rivojlantirish mumkinligini ta’kidlab o‘tganlar [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillarini tadqiq qilish asosida tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy-tashkiliy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va mantiqiy fikrlash kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi olimlarning fikr va mulohazalari, izlanishlarini o‘rganish natijasida tahliliy qismlarni ham amalga oshirish, tadqiqot ishimizning dolzarbligi va natijadorligini oshiradi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi turli nazariy maktablar tomonidan izohlangan va bu maktablarning o‘ziga xos jihatlarini namoyish etadi.

Merkantilizm maktabining asosiy xususiyati davlat eksportni rag‘batlantirib, importni cheklashi kerak degan g‘oyani ilgari suradi. Ushbu nazariya xalqaro savdoni davlat siyosatining bir qismi sifatida ekanligini alohida ahamiyat molik deb biladi. Klassik maktab esa mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalariga asoslangan bo‘lib, ular erkin savdo orqali barcha davlat va xalqlar foyda olishini ko‘zlashadi. Heckscher-Ohlin modeli maktablardan farqli o‘laroq mamlakatlar o‘zlarida ko‘p bo‘lgan resurslarga asoslangan mahsulotlarni eksport qilishi lozimligini asoslab beradi.

Zamonaviy yondashuvlar sifatida bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlar faqatgina savdo bilan cheklanmay, axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Globalashuv jarayonlari natijasida iqtisodiy faoliyatning xalqaro xarakterga ega bo‘lishi, transmilliy kompaniyalar va iqtisodiy ittifoqlar ta’siri kuchaymoqda. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichga chiqishiga sabab bo‘ldi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot omili va uning xalqaro iqtisodiyotga ta’sirini ko‘rib chiqsak, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot (ITT) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi eng muhim omillardan biridir. ITTning rivojlanishi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Misol uchun, sun’iy intellekt, robototexnika, 3D bosib chiqarish va IoT (Internet of Things) texnologiyalarining keng tarqalishi xalqaro sanoat ishlab chiqarishining samaradorligini oshirib, tovarlar va xizmatlar savdosini osonlashtiradi. Xitoyning raqamli iqtisodiyotdagi muvaffaqiyati ham mamlakat o‘zining ITTga kiritgan

sarmoyalari orqali global savdoni sezilarli darajada o'zgartiradi, elektron tijorat (Alibaba, JD.com) va moliyaviy texnologiyalar (WeChat Pay) orqali xalqaro savdoni optimallashtiradi.

Raqamli iqtisodiyot omili va elektron tijoratning global iqtisodiyotga ta'siriga qarasa, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va elektron tijoratning o'sishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va mobil texnologiyalar orqali tovarlar va xizmatlar global miqyosda tezroq va samarali almashiladi. Bunday rivojlanishni Amazon, Alibaba, va eBay kabi elektron tijorat platformalari butun dunyo bo'ylab savdo qilish imkoniyatlarini yaratdi. Ular ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga yetkazib berish tizimini yo'lga qo'yib, xalqaro savdo-sotiqni soddalashtirdi.

Xalqaro tashkilotlar va iqtisodiy ittifoqlar ham xalqaro savdo jarayonlarida faol ishtirok etadi. Xalqaro tashkilotlar va iqtisodiy ittifoqlar, masalan, Jahon Savdo Tashkiloti (WTO), Yevropa Ittifoqi (EU), Sharqiy Osiyo iqtisodiy hamkorlik (ASEAN) kabi tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash va tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotlar xalqaro savdoni liberalizatsiya qilish, sarmoyalar va texnologiyalarni almashish jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi. Yevropa Ittifoqi (EU) o'rtasidagi savdo-sotiq va iqtisodiy hamkorlikning mustahkamlanishi ham ularni bitta savdo tizimiga bog'laydi. Yevropa Ittifoqining birlashgan bozorida tovarlar va xizmatlar erkin harakatlanadi, bu esa Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro bog'liqlikni oshiradi.

Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari bugungi kunda global iqtisodiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xitoyning Afrikaga bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari qit'ada infratuzilma va sanoatni rivojlantirishda katta rol o'ynadi. Bu investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minladi, balki Xitoy va Afrika o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi.

Mehnat migratsiyasi va uning xalqaro iqtisodiyotga ta'siri ham muhim bo'lib, mehnat migratsiyasi ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasida harakati bo'lib, xalqaro iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishga yordam beradi. Xalqaro ishchi kuchining migratsiyasi nafaqat mehnat bozorini boyitadi, balki iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Hindistonning yuqori malakali IT mutaxassislarini AQSh va Yevropaga eksport qilish orqali Hindiston o'z iqtisodiyotini global miqyosda rivojlantiradi. Bu migratsiya nafaqat Hindistonning iqtisodiy salohiyatini oshiradi, balki AQSh va Yevropa mamlakatlarida ham malakali ishchi kuchi talabini qondiradi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi omillar, jumladan, ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, xalqaro tashkilotlar, investitsiyalar va mehnat migratsiyasi, global iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ularning o'zaro bog'liqligi va integratsiyasi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlaydi va yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun zamonaviy omillar, xususan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, global sarmoyalar oqimi, ijtimoiy va ekologik masalalarga e'tibor qaratilishi zarur. Xalqaro savdo va investitsiyalar, shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot global iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mamlakatlar o'rtasida raqamli savdoning rivojlanishi, xalqaro tashkilotlarning rolini kuchaytirish va barqaror rivojlanish yo'nalishlariga e'tibor qaratish xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan xulosadan quyidagi takliflarni ishlab chiqamiz:

- Raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarni oshirish kelajakda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va yangi infratuzilmalar yaratish zarurligi, shu orqali elektron tijorat va raqamli savdo tizimlarini yaxshilash va yangi imkoniyatlar yaratish mumkin;

- Xalqaro tashkilotlar va iqtisodiy ittifoqlarning samaradorligini oshirish borasida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va iqtisodiy ittifoqlarning rolini kuchaytirish, savdo va investitsiyalarning erkin harakatlanishiga imkon yaratish zarur. Bu tashkilotlarning ko'proq mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga yordam berishi mumkin;

- Texnologiyalar transferini qo‘llab-quvvatlash natijasida ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsiyalarni transfer qilishni rag‘batlantirish, o‘rta va past darajadagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarga yangi texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish imkoniyati yaratiladi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘shish va barqarorlikka olib kelishi yuqoridir;

- Barqaror rivojlanish siyosat asosida ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish talablariga javob beradigan siyosatni ishlab chiqish, atrof-muhitni himoya qilish, yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada mustahkamlashi mumkin;

- Mehnat migratsiyasini tartibga solish orqali mehnat migratsiyasini tartibga solish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ishchi kuchining malakali harakatini rag‘batlantirish hamda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish mumkin bo‘ladi;

- Xalqaro iqtisodiy siyosatni innovatsion asosda rivojlantirish natijasida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, shuningdek, yangi iqtisodiy hamkorlik va savdo shakllarini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://foxford.ru/wiki/geografiya/mezhdunarodnie-ekonomicheskie-otnosheniia-ih-formi-geograficeskie-osobennosti?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F

2. Мингалева Ж. А., Груздева Н. А. Факторы, влияющие на международные экономические позиции страны // Проблемы современной экономики (Новосибирск). 2010. №1-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-vliayuschie-na-mezhdunarodnye-ekonomicheskie-pozitsii-strany>

3. Дана Аслановна Хажкасимова Современные международные экономические отношения: парадокс вектора движения к независимости и самостоятельности на примере Brexit // Научные записки молодых исследователей. 2023. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-mezhdunarodnye-ekonomicheskie-otnosheniya-paradoks-vektora-dvizheniya-k-nezavisimosti-i-samostoyatelnosti-na-primere>

<p style="text-align: center;">Г.Мустафоев, С.Худойбердиева Основные факторы, формирующие современные международные экономические отношения</p> <p>Аннотация. В статье анализируются основные факторы, формирующие современные международные экономические отношения. В частности, такие факторы, как научно-технический прогресс, цифровая экономика, роль международных организаций, инвестиционные потоки, трудовая миграция, глобальная специализация, экологическая устойчивость рассматривались с точки зрения их влияния на международные экономические отношения. На основе анализа утверждается, что эти факторы приводят к изменению форм международного сотрудничества и появлению новых экономических моделей и политик.</p> <p>Ключевые слова: международные экономические отношения, глобализация, цифровая экономика, инвестиционные потоки, международные организации, научно-технический прогресс, экономическая интеграция.</p>	<p style="text-align: center;">G.Mustafoev, S.Khudoyberdieva Main factors shaping modern international economic relations</p> <p>Abstract. This article analyzes the main factors shaping modern international economic relations. In particular, factors such as scientific and technological progress, the digital economy, the role of international organizations, investment flows, labor migration, global specialization, and environmental sustainability are considered from the perspective of their impact on international economic relations. Based on the analysis, it is argued that these factors are leading to changes in the forms of international cooperation, the emergence of new economic models and policies.</p> <p>Keywords: international economic relations, globalization, digital economy, investment flows, international organizations, scientific and technological progress, economic integration.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.